

1. Boik, J. (2001). Natural Compounds in Cancer Therapy. Oregon Medical Press.
2. Bruneton, J. (1995). Pharmacognosy, Phytochemistry, Medicinal Plants. Lavoisier Publishing.
3. Ghedira, K. (2005). Medicinal Plants with Antifungal Properties: A Review. Journal of Ethnopharmacology, 98(1-2), 1-13.
4. Havsteen, B. H. (2002). The Biochemistry and Medical Significance of the Flavonoids. Pharmacology & Therapeutics, 96(2-3), 67-202.
5. Kostyuk, V. A., Potapovich, A. I. (1998). Antioxidant and Anti-inflammatory Properties of Natural Plant Extracts. Biochemistry (Moscow), 63(3), 299-306.
6. WHO (World Health Organization). (2004). Guidelines on Good Agricultural and Collection Practices (GACP) for Medicinal Plants. Geneva.
7. Yuan, H., Ma, Q., Ye, L., Piao, G. (2016). The Traditional Medicine and Modern Medicine from Natural Products. Molecules, 21(5), 559.

JAMIYAT TARAQQIYOTI YO‘LIDA AYOLLARNI ILM-FANGA QO‘SHGAN XISSASI

Ergashov Ibrohim Ixlos o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollarni hozirgi kunda ilm – fanga qo‘shgan xissalari, ularga yaratib berilayotgan shar – sharoitlar yaxshi natija bermoqda. Ilm taraqqiyoti yo‘lida jamiyat hayotiga bor imkoniyatlari bilan kurash olib bormoqda, yoshlarni bilimlarini, tafakkurlarini oshirishga ahamiyat qaratmoqda Maqolada shu haqida ma‘lumot beriladi.

Kirish Bugungi kunda mamlakat akademik doiralarida ayollarning o‘rni va mavqeyini oshirish, yangi avlod olim xotin-qizlarni tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag‘batlantirish bo‘yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta‘minlash, jumladan, ta‘lim va ilm-fan sohasida O‘zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiradi. Bu borada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 69-maqsadida: xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama

ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifasi belgilab qo'yilgan.

11-- fevral – Ilm-fanda xotin-qizlar ishtiroki xalqaro kuni. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida nishonlanadigan ushbu sana ayollarning ilmiy-texnologik hamjamiyatda muhim rol o'ynashini, ilm-fanda ularning ishtirokini kengaytirish zaruratini eslatib turadi. Mazkur xalqaro sanani keng nishonlash Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015 yil 22 dekabrda rezolyusiyasida qayd etilgan. Ushbu rezolyusiya xotin-qizlarning ilm-fan bilan to'la va teng huquqli tarzda shug'ullanishiga erishish, gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qabul qilingan.

BMT rezolyusiyasi barcha mamlakatlarni ayollarning ilmiy faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish, ilm-fan, texnika va innovatsiya sohalarida gender nomutanosiblik sabablarini aniqlash, xotin-qizlarni ilmiy muhitga jalb etish bo'yicha dasturiy tadbirlarni amalga oshirishga chaqiradi. Ilm-fanda yangi ufqlarni kashf etish insonning yoshi, irqi, tili, millati va jinsiga aslo bog'liq emas. Insoniyat bu haqiqatni ancha oldin anglab yetgan. Masalan, bundan ikki asr muqaddam Stendal taxallusi bilan mashhur bo'lgan Anri Beyl gender tenglik nafaqat adolat va qadr-qimmat hurmat qilinishi uchun, balki ilm-fan va inson bilimini rivojlantirish uchun ham naqadar zarurligini ta'kidlagan.[1]

Ma'lumki, yangilanayotgan O'zbekistonda bugungi kunda eng katta e'tibor xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. Chunki har bir davrning o'z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud bo'lib, ularni shakllantirish va rivojlantirishda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining

aniq yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Hozirgi davrning eng katta masalalaridan biri xotin-qizlar siyosiy-ijtimoiy faolligini oshirish hamda qo'llab-qaratilganligidadir. Shu bois ham, jahon miqyosida xotin-qizlarning o'rnini va roli tobora yuksalib bormoqda. Agar e'tibor bersak, sharqda ayollarga bo'lgan e'tibor kuchli bo'lib, bu haqda, ya'ni xotin-qizlarning davlat boshqaruvida tutgan o'rnini masalalari qadim yunon olimlari Aflotun, Arastudan boshlangan bo'lib, Sharq xalqlari mutafakkirlari Ibn Sino, Al Buxoriy, Forobiy, Alisher Navoiy va boshqalar o'z asarlarida komil inson tarbiyasida ayollarning muhim o'rin tutishini ekanini siyosiy-huquqiy qarashlarida bayon etishgan. Ta'limotlarda qayd etilsada, hayotda ayollarning huquqlari erkaklarnikidan anchagina pastda edi. Zamon rivojlangan sari dunyoda ayollarning o'rnini oshib bordi. Imda ayol haqida gapirganda shuni jonzoatlarning validasi, onasi bo'lmish ayol ilmning ham validasi bo'la oladi. Biroq, bugungi kunda ayol olimi jamiyat taraqqiyotida o'z o'rniga ega

bo'layotganining barchamiz guvohimiz. Shuni unutmaslik kerakki, ayollarning ilm – fan yo'lidagi rolini alohida ta'kidlash joiz-agar ayol erkaklar, oilasi va yaqinlari tomonidan yaxshi qo'llab-quvvatlanmasa, xoh ilmida, xoh martabada bo'lsin, yuksaklikka erisha olmaydi. Lekin men bugun, butun dunyoda, ayol va ilm-fan deyarli ajralmas tushuncha, deb ishonaman. Zero, fan va gender tengligi rivojlanish maqsadlariga erishish jarayonining ajralmas elementlari, shu jumladan barqaror rivojlanish uchun 2030 yilgacha dastur belgilangan. O'tgan 15 yil davomida jahon hamjamiyati xotin-qizlarni ilm-fanga jalb etishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bunga qaramasdan, ayollar va qizlar hali bu sohada cheklovlarga, to'siqlarga duch kelayotgani ayni haqiqat. BMT veb-saytiga ko'ra, bugungi kunda ayollarning 30% dan kamrog'i ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanar ekan. Shu bois bu muammoning echimi sifatida ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to'laqonli foydalanishlariga teng imkoniyatlar yaratish, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish maqsadida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovasiyalar" to'g'risida rezolyusiyada 11 fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni deb e'lon qilingan. Mazkur sananing belgilanishi BMTning Bosh Assambleyasining «Bizning dunyomizni o'zgartirish: 2030 barqaror rivojlanish kuntartibi» rezolyusiyasi sifatida tanilgan 2030 yilgacha jamiyatni rivojlantirish rejasini amalga oshirishda yana bir muhim voqea bo'ldi. Qarorning asosiy maqsadi ayollar va qizlarni ilmiy sohaga jalb qilish jarayonida sifatli o'zgarishlarga erishishdir. So'nggi 15 yil ichida jahon hamjamiyati ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ayollar va qizlar ushbu sohada cheklovlarga duch kelishmoqda. Ayol ilmga erkaklardek birxilda keladi. Ko'pchilik hollarda ma'lum bir sohaga qiziqishi ilmga etaklaydi. Shubhasiz, ayollar uchun bir qator sabablarga ko'ra ilm-fan sohasida rivojlanish qiyinroq. Birinchidan, tabiatan ayol odatda erkakdan ko'ra ko'proq hissiyotlarga ega bo'lib, bu ba'zan analitik jarayonga to'sqinlik qiladi. Biroq, bu "qoida" uchun juda ko'p istisnalar bor. Asosan, bu ota-onalarning bolalikdan beri qizlarining aql-zakovatini rivojlantirishga qancha sarmoya kiritishiga bog'liq. Ikkinchidan, ilm-fanda ayollarga nisbatan kamsitish omilini hech kim bekor qilmagan. Jamiyat nazarida shu kungacha erkak olimlar ayol olimalardan ko'ra ko'proq maqomga ega. Ko'pgina hollarda olima ayollar ishi turli bosqichlarda chindan ham muhim natijalarga olib keladigan tadqiqotlar o'tkazishi muhim bo'lib, dastlabki ma'lumotlarni to'plagach, oraliq tadqiqotlar, laboratoriyalarda tajribalar natijalarini kuzatishadi. Shuning natijasida ko'pchilik ayollar ilmiy tadqiqotini oxirigacha etkaza olmay laborant, dosent darajasidan yuqoriga ko'tarila olmaydi, akademik, fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi bo'la olmaydi. Uchinchi sabab ham sifatida O'zbekistonda milliy qadriyatlarimizda oila muqaddasligi, farzand tarbiyasi va

oilaviy yumushlarning ustun turishi an'anaviy bo'lib, uning nazarida ayol bolalarga g'amxo'rlik qilish, turli xil uy ishlarini bajarishga majburdir. Ayol olim esa hayotning bu qismini yolg'iz o'zi engishga majbur bo'lsa, ilm-fan uchun o'zi istagan darajada kuch topishi qiyin, bu esa uning bu yo'lda taraqqiy etishiga ham to'sqinlik qiladi. Erkaklar ehtimol butunlay tadqiqot ishlari uchun o'zlarini bag'ishlashi mumkin. Tarixda ilm-fan va jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab buyuk ayol olimlar bo'lgan. Bular Sofiya Kovalevskaya, Mariya Skladovskaya-Kyuri, Doroti Kroufoot-Xojkin, Nodirabegim, Uvaysiy, kabilar.. Agar ilmda bir kishigina faqat olim bo'lsa, unda ayol olim, ona, ko'p hollarda har sohani muvaffaqiyatli bajaradi. Bugungi kunda ayollar o'z faoliyatini olib bormaydigan ilmiy soha deyarli yo'q: hatto metallurgiya, mashinasozlik, aviasiya va kosmik kabi erkaklar kabi zabt etishmoqda. Menimcha, ilmiy tadqiqotlarda qancha ayol va erkak ishtirok etayotgani quvonarli holat bo'lib, bugungi kunda ayollar ilm-fanning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi."

Demak, O'zbekiston deb atalmish bu ona zaminda ilm har davrda qadr topgani bois, birinchi, ikkinchi Renessans davri bo'lganini dunyo e'tirof etmoqda. Ayniqsa, huquq ilmi, qozilik maktablari ham o'z tarixiy rivojiga ega bo'lgan. Shu bois, fiqh – barcha fanlar qatorida huquqshunoslikka oid jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim ilm bo'lib, o'z tarixiy rivojini bosib o'tgan. Jumladan, ayollarning ilm olishlari shariatda ham qo'llanilgan. Masalan, Imom Saraxsiy (r.a.) marhamat qiladilar: "Alloh taologa iymondan so'ng, eng quvvatli farz – ilm talab etishdir. Chunki Rasululloh (s.a.v.): "Ilm talab etmoq har musulmon erkak va ayol uchun farzdir",

Xulosa Xulosam shuki yangilanayotgan O'zbekistonda bugungi kunda eng katta e'tibor xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratililishini ko'rmoqdamiz. E'tibor bersak bu kabi imkoniyat va imtiyozlar qalbida o'qishga ishtiyoqi baland xotin-qizlarga qanot bo'lyapti. Buning oqibatida ilm-fan ravnaqi, yurt kelajagi uchun tinim bilmay ilmiy izlanishlar qilayotgan, ilm-fan rivoji uchun hissa qo'shayotgan xotin-qizlarimiz safi kengayishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 январь 2022 йилдаги "2022– 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони.

[2] O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2019